
**MARKAZIY OSIYONING STRATEGIK QADRIYATLARI VA
SO‘NGGI YILLARDA ORTIB BORAYOTGAN GEOSIYOSIY
AHAMIYATI**

Nodirbek G‘oibnazarov

[*nodirbekgoibnazarov@gmail.com*](mailto:nodirbekgoibnazarov@gmail.com)

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

ANOTATSIYA: *Geosiyosat maydonida kechayotgan tinimsiz, beqaror, ziddiyatli kurashlar, mintaqamiz qanchalar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib qo‘ymoqda. Markaziy Osiyo respublikalari bunday beqaror vaziyatda o‘z vazifalarini to‘g‘ri anglagan holda, barcha o‘yinchi bilan muvozanatni saqlashga harakat qilishmoqda. Ushbu maqola orqali mintaqamiz ahamiyatini oshirayotgan asosiy omillarni va jahon maydonida Markaziy Osiyo uchun kechayotgan klassik geosiyosiy kurashni tahlil qilishga harakat qilamiz.*

Kalit so‘zlar: *“C5+1”, “Global janub”, Markaziy Osiyo, tabiiy zahiralar, MMDH, SHHT, YEOI.*

KIRISH: Ukraina urushi boshlanganidan beri Markaziy Osiyoning strategik ahamiyati yana bir bor jamoatchilik e‘tiborini, o‘ziga qaratmoqda. AQSH, Xitoy va Rossiya o‘rtasidagi strategik raqobat davrida Markaziy Osiyoga qiziqish ortib borayotganligi sababli qudratli davlatlar o‘rtasida o‘ziga xos raqobat tuzilmasi shakllanmoqda. Bu hodisani XXI asr „ Katta o‘yin“i desak yanglishmagan bo‘lamiz.

2023-yil may oyida Xitoy rahbari Si Tszinpin Markaziy Osiyoning beshta davlati rahbarlarini Shensi provinsiyasi Sian shahrida “Xitoy – Markaziy Osiyo” sammitini o‘tkazishga taklif qilgan edi. Sammitdagi nutqida Prezident Si yangi davrda Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasida umumiy kelajak hamjamiyatini barpo etish va kelajakdagi hamkorlikni uzoq muddatli rivojlantirish bo‘yicha bir qancha rejalarni taqdim etdi. Ishtirokchi davlatlar rahbarlari xalqaro va mintaqaviy

masalalar yuzasidan keng fikr almashdilar, o'zaro ishonch va hamkorlikning asosiy yo'nalishlari muhokama qilindi.

2023-yil sentabr oyida Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasi chog'ida AQSh prezidenti Bayden tarixda birinchi marta Markaziy Osiyoning besh davlati rahbarlari bilan "C (Markaziy Osiyo) 5+1" sammitini o'tkazdi. Sammitda AQSh va Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari mintaqaviy xavfsizlik, savdo va sarmoyani rag'batlantirish, mintaqaviy aloqalarni mustahkamlash, milliy suverenitet va hududiy yaxlitlikni hurmat qilish hamda demokratik boshqaruv va qonun ustuvorligini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar kabi turli masalalarni muhokama qildilar.

2023- yil noyabr oyida Fransiya prezidenti Makron Qozog'iston va O'zbekistonga tashrif buyurib, sammit o'tkazdi va u resurs bo'yicha hamkorlik muhimligini ta'kidlab, Fransiyaning Markaziy Osiyodagi mavjudligi va mavqeini mustahkamlashga intildi. Rossiya va Ukraina urushi davom etayotgan vaqtda Makronning Markaziy Osiyoga, aynan Qozog'iston va O'zbekistonga tashrifi Fransiya energetika havfsizligini taminlashda uranga bo'lgan talabni yaqqol namoyon etdi.

Bu kabi tashriflar va uchrashuvlar geoiqtisodiy jabhada mintaqa resurslariga bo'lgan talabni namoyon etibgina qolmay balki mintaqani Yevrosiyoda manfaatdor mintaqa sifatida ham namoyon etmoqda. Chunki Markaziy Osiyo ham geosiyosiy ; Yevropa va Osiyo o'rtasidagi bog'lovchi hudud, Yaqin Sharq va O'rta yer dengizida xavfsizlikning strategik nuqtasi va geoiqtisodiy; Yevroosiyoda tabiiy resurslar, transport logistika va energiya tarmoqlari sohasida markaziy mintaqalardan biri. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlari Yevroosiyoda qit'asida Yevroosiyoda iqtisodiy ittifoqi (YEOI), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH), va Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) kabi ko'p tomonlama hamkorlikning asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Mintaqamiz davlatlari global o'tish davrida ichki va tashqi muammolarga duch kelmoqda. Masalan, AQSh harbiy kuchlari Afg'onistondan olib chiqib ketilgandan so'ng, Afg'onistonda barqarorlik va

Modern education and development

xavfsizlikni o'rnatish, Rossiya – Ukraina urushining salbiy ta'siri va zararini minimallashtirish, mintaqadagi siyosiy , xavfsizlik va iqtisodiy noaniqliklarni bartaraf etish va ko'p tomonlama hamkorlikni rag'batlantirish va yangi siyosiy rahbariyat tomonidan qudratli davlatlar va uchinchi dunyo davlatlari bilan hamkorlikning yangi yo'nalishlarini izlash orqali siyosiy va iqtisodiy islohotlar siyosatini, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni o'rnatish , milliy taraqqiyot va iqtisodiy modernizatsiyani ilgari surish.

Markaziy Osiyo hukumat rahbarlari kuchli davlatlar bilan bo'lgan munosabatlarda ehtiyotkorlikni esdan chiqarmagan holda harakat qilishmoqda. Hech kimga sir emaski so'nggi yillarda mintaqada Xitoyning geosiyosiy obro'si Rossiyani oshib ketdi. Mintaqa Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Turkiya kabi kuchli o'yinchilar qurshovida bo'lsada ular orasida Rossiya va Xitoy eng ta'siri katta davlatlardir. Jahonda demokratik va avtokratik rejimlar o'rtasida qarama-qarshilik shakllanmoqda. Bir tomonda AQSH boshchiligidagi ommaviy G'arb, boshqa tomonda ko'p qutubli dunyo davogarlari bo'lgan Xitoy, Rossiya, Eron va boshqalar. Shu hodisalar fonida geosiyosat sahnasida „Global janub“ tushunchasi yana e'tibor torta boshladi. Xitoy va Rossiya kabi ikki muhim o'yinchilar g'arbg qarshi bir tomonda turgan bo'lsada, lekin ayrim masalalarda o'zaro raqobatga kirishishga majburdir. Asosan Xitoy va Rossiya hozirda Yevroosiyo siyosatida va ayniqsa, Markaziy Osiyoda nihoyatda murakkab raqobatda. Xitoy va Rossiyaning Markaziy Osiyodagi iqtisodiy va siyosiy sohadagi strategik manfaatlari bir-biridan keskin farq qiladi.

Markaziy Osiyoning strategik ahamiyati uning geografik joylashuvidan kelib chiqadi. Uning Osiyo qit'asining o'rtasida, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Turkiya va Eron kabi siyosiy bloklar bilan o'ralganligi sababli bu barcha davlatlar va boshqa global kuchlar uchun raqobat maydoniga aylandi. Britaniyalik siyosatchi Xelford Makkinder o'zining mashhur nazariyasida Yevroosiyo markazidagi mintaqani to'g'ri boshqarish dunyoning buyuk kuchlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi va bu mintaqada hukmronlik qilayotgan kuchlar butun Yevroosiyoda va hattoki, dunyoda hukmronlik qilishi mumkin – degan fikrni

ilgari surgan edi. Aslini olganda, o'zgarishlar shuni ko'rsatdiki, mintaqadagi resurslarga egalik qilish Rossiyadan Xitoy, Hindiston yarimoroli va Yevropagacha bo'lgan neft, tabiiy gaz, mineral va qishloq xo'jaligi resurslariga ham egalik qilish demakdir. Qolaversa, Markaziy Osiyodagi muhim yo'llarga hukmronlik qilish mintaqadagi Hindiston, Xitoy va Rossiya kabi buyuk davlatlarni bog'lovchi yo'llarga ham hukmronlik qilish demakdir. Markaziy Osiyoning yana bir strategik diqqatga sazovor xususiyati shundaki, mintaqaning neft va tabiiy gazga juda boy bo'lgan Kaspiy dengizida qirg'oqlari bor. Ba'zi hisob-kitoblarga ko'ra, Kaspiy dengizida 150 milliard barrel neft va 75 trillion kub metr tabiiy gaz zaxiralari mavjud, birgina Turkmanistonning o'zida esa taxminan, 17 trillion kub metr tabiiy gaz zaxiralari mavjud. Bugungi kunda Markaziy Osiyo tabiiy resurslar jihatidan kuchli bo'lishidan tashqari, Sharqiy Osiyo va Yevropa o'rtasida tijorat tovarlarini o'tkazish imkonini beruvchi energiya liniyalari, quruqlik va dengiz yo'llarida hukmronlik qiladigan strategik mavqega ega bo'lib, ochiq va bilvosita raqobatni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.G'olibnazarov. Geosiyosat fonida Markaziy Osiyoning ro'li. Analysis of world scientific views Internatioal Scientific Journal. 2023.
2. O'. G'aybullayev. Markaziy Osiyoning jahon geosiyosatida tutgan o'rni. Analysis of world scientific views Interational Scientific Journal.2023.